



# Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

## OVOZLI AXBOROT VOSITALARI ORQALI ESHITISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (AUDIO PODKASTLAR ASOSIDA)

Toxirova Madinabonu<sup>1</sup>

*Farg'ona davlat universiteti*

### KEYWORDS

eshitish ko'nikmasi, audio podkast, xorijiy til, metodika, autentik material.

### ABSTRACT

Ushbu maqolada xorijiy til o'rgatish jarayonida audio podkastlar asosida eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Audio materiallar orqali o'quvchilarda fonetik eshituv, mazmunni anglash, asosiy va ikkilamchi ma'lumotni ajratish, shuningdek, autentik tilga moslashuv ko'nikmalari shakllanadi. Maqolada audio vositalarning afzalliklari, qo'llaniladigan metodlar va darsda ularni integratsiyalash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15684657](https://doi.org/10.5281/zenodo.15684657)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

### Kirish

Chet tilini o'rghanishda eshitish (audiovanie) ko'nikmasi muhim nutqiy kompetensiyalar sirasiga kiradi. O'quvchi yoki tinglovchining tilni to'g'ri tushunishi, og'zaki nutqni qabul qilishi hamda unga to'g'ri javob bera olishi, aynan eshitish kompetensiyasiga bog'liq. An'anaviy darslarda eshitish materiali ko'pincha ssenariylashtirilgan, sun'iy ohangli va murakkab bo'limgan nutq shaklida taqdim etiladi. Ammo real hayotda tilning autentik shakli, turli aksent va tezlikda eshitiladi.

Shu sababli, audio podkastlar замонавий дидактик восита сифатида кенг ўрин эгаллай бошлади. Улар орқали ўқувчи жонли тилни эшитиш, тушуниш, anglash ва мулоҳаза юритиш қобилиятини ривожлантиради. Ushbu maqolada aynan podkastlar asosida eshitish kompetensiyasini shakllantirish metodikası taҳлил қилинади.

### Metod

Audio podkastlardan foydalanishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi: Oldindan tayyorgarlik bosqichi (Pre-listening stage). Dars avvalida podkast mavzusi, asosiy so'zlar va kontekst tushuntiriladi. Mazkur bosqich o'quvchilarni tinglov materialiga

<sup>1</sup> Farg'ona davlat universiteti

tayyorlaydi. Masalan: „Bugun nemis tilida sayohat haqida podkast eshitamiz. Quyidagi so‘zlar bilan tanishing: Fahrkarte, Bahnhof, Ankunft.“

Tinglash bosqichi (While-listening stage). Podkast 1–2 marta tinglanadi. O‘quvchilarga vazifalar beriladi: Asosiy fikrni ajratish (Was ist das Thema?). Detallarni belgilash (Welche Stadt wurde erwähnt?). To‘g‘ri/noto‘g‘ri bayonotlar bilan ishslash (Richtig/Falsch-Fragen). Tahlil va muhokama (Post-listening stage). Tinglangan podkast asosida o‘quvchilar quyidagilarni bajaradi: Savollarga javob beradi. O‘z fikrini bildiradi. Nutqiylar mashqlar: rol o‘ynash, hikoya qilish, bahs yuritish

Refleksiya va mustahkamlash. O‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi: Nimalarni tushundi? Qaysi so‘zlar qiyin bo‘ldi? Qanday strategiyalar foydali bo‘ldi?

Mustaqil tinglov topshiriqlari. O‘quvchilarga uyda eshitish uchun audio podkastlar (A1–B1 darajasida) beriladi: Masalan: DW Deutsch Lernen: Langsam gesprochene Nachrichten.

Baholash usullari. Baholashda quyidagilardan foydalanish mumkin: Multiple-choice savollar. Bo‘s sh joylarni to‘ldirish (gap ichida). Qisqa yozma mazmun. Guruhli savol-javob asosidagi interaktiv tekshiruv

#### Xulosa

Ovozli axborot vositalari, xususan podkastlar, eshitish ko‘nikmasini shakllantirishda samarali vositadir. Ular orqali o‘quvchilar real nutqni anglash, tezlik va aksentlarga moslashish, kontekst asosida tushunish, tanqidiy eshitish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Podkastlar autentik til materiallari bo‘lib, ular orqali nafaqat til o‘rganiladi, balki madaniyat, nutq ohangi ва мулоҳаза юритиш қобилияти ҳам rivojlanadi. Shu bois, audio podkastlardan maqsadli va bosqichma-bosqich foydalanish xorijiy til eshitish kompetensiyasini mustahkamlashning muhim 136edagogic omilidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Rost M., Teaching and Researching Listening, Routledge, 2011.
- 2.Gilakjani A. P. (2016). “The Significance of Listening Comprehension in English 3.Language Teaching”, Theory and Practice in Language Studies.
- 4.Brown, H. D. (2001). Teaching by Principles: An Interactive Approach to 5.Language Pedagogy, Pearson Education.
- 6.DW – Deutsch Lernen mit Podcasts: [www.dw.com/de/deutsch-lernen](http://www.dw.com/de/deutsch-lernen)
- 7.Field, J. (2008). Listening in the Language Classroom, Cambridge University Press.